Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321038

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Эффективное использование туристического потенциала требует комплексного подхода, который включает развитие инфраструктуры, вовлечение местных сообществ, внедрение устойчивых практик и стратегическое планирование. Примеры из разных стран показывают, что туризм может стать мощным инструментом регионального развития, если он основан на принципах устойчивости. Ключевые рекомендации:

– Развивать транспортную и туристическую инфраструктуру для повышения доступности регионов;

– Активно вовлекать местное население в туристическую деятельность для справедливого распределения экономических выгод;

– Внедрять экологически устойчивые практики для сохранения природных ресурсов;

– Разрабатывать уникальные туристические предложения, которые подчеркнут особенности региона;

– Обеспечивать координацию между государственными органами, частным сектором и местными сообществами.

Эти подходы позволят не только использовать туристический потенциал для экономического роста, но и способствовать социальному развитию и сохранению культурного наследия.

Список использованной литературы

1. Approach to Regional Tourism Potential Assessment in View of the Formation of a Tourism Ecosystem. Sustainability, MDPI, 2022.
2. Do Tar Roads Bring Tourism? Growth Corridor Policy and Tourism Development in the Zambezi Region, Namibia. arXiv.org, 2020.
3. Community-Based Tourism and Best Practices with the Sustainable Development Goals. Administrative Sciences, MDPI, 2022.
4. Impact of Tourism Development upon Environmental Sustainability: A Suggested Framework for Sustainable Ecotourism. Environmental Science and Pollution Research, Springer, 2022.

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH USULLARI VA SHAKLLARI

Umarova Gulzodaxon Qodirbekovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti “Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayotning hamma tomonlarini, ayniqsa, iqtisodiyotni isloh qilishda katta yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatda iqtisodiyotni bozor yo‘nalishida o‘zgartirish, qayta qurish sohasida tamomila yangi yondashuvlar ishlab chiqildi va uning eng muhim hususiyati islohotlarning har bir bosqichida asosiy maqsadlar va ustuvor yo‘nalishlar puxta belgilab olindi. Faol investitsiya siyosati-barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishning eng muhim shartlaridan biridir.

Абстрактный. В Республике Узбекистан достигнуты большие успехи в реформировании всех сторон общественной жизни, особенно экономики. В стране разработаны совершенно новые подходы в сфере трансформации и реструктуризации экономики в рыночном направлении, и важнейшей ее особенностью является то, что на каждом этапе реформ были тщательно определены основные цели и приоритеты. Активная инвестиционная политика

Published: 23.12.2024

Cite this article: Umarova Gulzodaxon Qodirbekovna (2024). Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish usullari va shakllari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321038

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

является одним из важнейших условий достижения устойчивого экономического развития.

Abstract. In the Republic of Uzbekistan, great progress is being made in reforming all aspects of social life, especially the economy. In the country, completely new approaches have been developed in the field of transformation and restructuring of the economy in the direction of the market, and its most important feature is that the main goals and priorities have been carefully defined at each stage of the reforms. An active investment policy is one of the most important conditions for achieving sustainable economic development.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, investitsiya siyosati, xorijiy investitsiya, investor, investor xuquqi, investor majburayati, davlat, daromad, xarajat, qimmatli qog‘ozlar, qimmatli qog‘ozlar bozori, moliyaviy investitsiya, real investitsiya, intelektuai investitsiya, davlat investitsiyasi, xususiy investitsiya, xorijiy investitsiya.

Ключевые слова: Инвестиции, инвестиционная политика, иностранные инвестиции, инвестор, права инвестора, обязанность инвестора, состояние, доход, стоимость, ценные бумаги, рынок ценных бумаг, финансовые вложения, реальные инвестиции, интеллектуальные инвестиции, государственные инвестиции, частные инвестиции, иностранные инвестиции.

Key words: Investment, investment policy, foreign investment, investor, investor's right, investor's obligation, state, income, cost, securities, securities market, financial investment, real investment, intellectual investment, state investment, private investment, foreign investment.

O‘zbekiston mustaqil davlat maqomiga erishgandan so‘ng mamlakat iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishning turli xil xususiyatlarini hisobga olib o‘zining yo‘nalishini belgilab oldi hamda ushbu yo‘l bo‘ylab o‘zining iqtisodiy rivojida davom etmoqda.

Hozirgi kunda rivojlangan va takomillashtirilayotgan investitsion faoliyatning yo‘lga qo‘yilishida davlatimiz olib borayotgan oqilona investitsiya siyosati natijalaridan biri yurtboshimiz ta‘kidlab o‘tganlaridek, 2021-2026-yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturining hayotga tatbiq etilishi o‘ta muhim o‘rin tutadi. Nega deganda, bu dastur sanoatda, butun iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarning eng muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy fondga investitsiyalar asosan kapital qo‘yilma ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin, hamda yangi qurilishga, kengaytirishga, rekonstruksiyaga va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga, uskunalar, loyiha uchun zarur xom-ashyoni sotib olishga qilinadigan xarajatlar yig‘indisidir. Iqtisodiy fanlar va amaliyotda «investitsiya» va «kapital qo‘yilma» terminlari ma‘nodosh ya‘ni sinonim so‘zlar emasligini ko‘p bora ta‘kidlab o‘tilmoqda. Investitsiyalar kapital qo‘yilmaga nisbatan ancha keng ma‘noga ega tushuncha ekanligi isbotlangan. G‘arb adabiyotlarida investitsiya termini haqida so‘z borganda birinchi e‘tibor fond bozorlari va birjalarga qaratiladi, chunki yetakchi rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar, asosan, qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida bo‘lib asosan shu shaklda amalga oshiriladi.

Investitsiya tushunchasiga yagona va to‘liq ta’rif berish anchagina qiyin hisoblanadi. Iqtisodiy fanlarda va amaliy faoliyatning turli jabhalarida investitsiyalarning mazmuni hamda ularning o‘ziga hos xususiyatlari mavjud deb uchragan. Iqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda yangi texnika va texnologiyalarga, binolarga shu bilan birga moddiy va nomoddiy zaxiralar hajmining ortishi uchun

qilinadigan xarajatlardan tashkil topadi va umumiy xarajatlarning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lishi ham mumkin.

Investitsiyalar - aynan aniq bir belgilangan davrda iste‘mol qilinmagan va kelajakda aniq iste‘mol qilinadigan iqtisodiyotdagi kapital qo‘yilmalarning ko‘payishini ta‘minlashga ko‘maklashuvchi yalpi ichki mahsulotning bir qismi hisoblanadi. Investitsiyalar hajmiga inflyasiya sur‘atlari ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich yuqori bo‘lsa investorning kelajaqdagi daromadi qadrsizlanadi va investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi omillar ham kamayib ketishiga olib keladi. Investitsiyalar turli xil shakllarda amalga oshirilib, ularni tahlil qilish, rejalashtirish alohida xususiyatlarini inobatga olgan holda yo‘nalishlarga ajratish mumkin bo‘ladi. Birinchidan, qo‘yilish obyekti bo‘yicha investitsiyalarni real va moliyaviy investitsiyalarga bo‘lib olamiz. Real investitsiyalar ular moliyaviy mablag‘lar korxona hisobidagi moddiy va nomoddiy boyliklarga yo‘naltiriladi. Moddiy investitsiyalar esa asosiy fondning ma‘lum bir qismlarini sotib olish bo‘lib, investitsion loyihalar va innovatsion investitsiyalar tarkibida ishtirok etadi.Shu sabab shaxsiy mablag‘lar bilan qarzga olingan mablag‘ bir maqsad uchun ishlatiladi. Qarzga olingan mablag‘larda investorning vazifasini o‘z zimmasiga kredit berayotgan banklar bajaradi. Nomoddiy investitsiyalar nomoddiy boyliklar paydo bo‘layotganda amalga oshiriladi va kadrlar salohiyatini oshirishga, ilmiy tadqiqot va tajriba - konstruktorlik loyihalarida, yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Fan-texnika rivojlanishi va yangi bosqichga qadam qo‘yishi bilan intellektual salohiyat dunyo ishlab chiqarishi ta‘sir etuvchi eng kuchli omilga aylandi. XX asrda fan, ishlab chiqarishni rivojlantirish, inson bilimini shakllantirish va rivojlantirish uchun sarf qilingan investitsion mablag‘lar oshdi. Shu bois dunyoda investitsiyalar tarkibida ilmiy tadqiqot, turli xil izlanishlar, ilm- fan, ta‘lim, kadrlar malakasini oshirish uchun sarflanadigan xarajatlar o‘smoqda. AQSh, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda fan va ilmiy izlanishga jalb qilinadigan xususiy va xorijiy investitsiyalarning o‘sish sur‘atlari asosiy fondlarga sarflanadigan investitsiyalardan ko‘proq hisoblanadi.

Chunki mamlakatning kelajagini ilm fan, intellektual salohiyat belgilab berishi hammaga ayon bo‘lib ulgurgan. Jahon bozoriga kirish, marketingni rivojlantirish, aniq va ishonchli axborot bilan ta‘minlanganlik, yuqori darajadagi axborot texnologiyasi tizimlaridan foydalanish, tajribali va sifatli kadrlarga ega bo‘lish hamda ushbu soha bo‘yicha dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishni talab etadi. Shuning uchun jadal sur‘atlar va yuqori templar bilan rivojlanish investitsiyalarning ichida fan, texnika, ta‘lim, kadrlarni qayta tayyorlashga yo‘naltirilgan investitsiyalarning o‘rnini oshirish zarur.

Investitsiyalarni kiritishda, eng avvalo:

- investitsiya faoliyati subyektlarining erkinligi va tashabbuskorligining to‘liq ta‘minlash;
- ma‘lum bir sohani rivoji uchun kiritilayotgan moddiy va nomoddiy boyliklarga investitsiya maqomini berish;
- qonun bilan belgilangan tartibdagi investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarning yaratilishi zarur hisoblanadi.

Investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi 5 ta asosiy talablar mavjud:

1. Mamlakatdagi kuchli va deyarli mukammal holatga yaqin bo‘lgan investitsion menejerlarning mavjudligi;

2. Mamlakatdagi ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning jahon bozorlaridagi boshqa xuddi shunday mahsulot va xizmatlarga nisbatan taqqoslaganda raqobatbardoshligi jihatdan ustunroq bo‘lishi lozim;

3. Mamlakat jahon bozorining katta xajmda boshqa xech qaysi mamlakatda mavjud bo‘lmagan mahsulot yoki xizmatlarni ko‘rsatib egallashi lozim;

4. Yaqqol mavjud yoki kelajakda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan qonuniy to‘siqlarning yo‘qligi;

5. Kelajakda mamlakatning ma‘lum muddatga mo‘ljallanganligi rivojlanishi uchun aniq reja va tushunarli strategiyaga ega bo‘lishi kerak.

Investitsiyalarni boshqarish bu mamlakat miqyosidagi investitsion faoliyatning asosidagi boshqaruv qarorlarini amalga oshirish bo‘yicha usullar va tamoyillarning majmuasi hisoblanadi. Investitsiyalarni boshqarish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:oldingi davr uchun investitsion jarayonlarni baholashdan iborat; kelajakdagi kapital qo‘yilmalarning xajmini hisoblash chiqishdan iborat;

Investitsion faoliyatga investitsiyalarning qanday shaklda kiritilishi aniqlanadi;mamlakat iqtisodiyotiga kerakli investitsion loyihalar tanlanadi; kutilayotgan investitsion risklar va investitsion faoliyatning samaradorligi tahlil qilinadi;eng oxirgi bosqichda investitsion loyihaning amalga oshishi, uning monitoringi va nazoratini o‘z ichiga oladi. Investitsiyalarni boshqarish bu turli xil qimmatli qog‘ozlarni va mol-mulk, texnikani investorlarning manfaatlari va extiyojlarini qondirish maqsadida foyda olish uchun professional boshqarish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish konsepsiyasining asosida quyidagi muhim yondashuvlar mavjud:

Investitsion faoliyatni tanlash jarayoni sifatida ko‘rib, investitsion resurslarni jalb qilish va asoslash hamda investitsiyalash mexanizmini investitsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida foydalanish zarur. investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish obyektning investitsion jozibadorligini baholash bilan amalga oshiriladi;

- turli xil tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishning usullari tanlanayotganda investitsiyalash jarayonida ishtirok etayotgan investorning manfaatlari hamda mamlakatning manfaatlarining mos kelishini inobatga olishlozim;

- hukumat tomonidan loyihalarni investitsiyalashda aholi va davlat olinadigan natijalardan manfaatdor bo‘lishi shu bilan birga ijtimoiy muammolarni hisobga olish talab etiladi.

Ushbu yondashuvlar natijasida investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish konsepsiyasi haqidagi fikr va mulohazalarni umumlartirgan holda, shuni aytish lozimki har bir konseptual yondashuv mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qilishi va uni yanada rivojlanishi uchun zamin yaratishi shart.

Investitsion loyihalarni byudjet hisobidan moliyalashtirish, qoidaga asosan maqsadli dasturlar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash asosida moliyalashtiriladi. U asosan byudjet mablag‘larini quyidagi asosiy shakllarda: amaldagi yoki yana yangi tashkil qilingan tashkilotlarning ustav kapitaliga investitsiyalar, byudjet kreditlari (shu jumladan investitsion soliq krediti), subsidiya va kafolatlar taqdim etiladi.

Loyihaviy moliyalashtirish o‘z xarakteri bilan kreditorlarning keng tarkibi hamda konsorsiumlarni tashkil qilish imkonini beradi. Bank-agentlar - yirik moliyaviy institutlar ularning manfaatlarini ko‘rsatadi. Moliyalashtirish manbalari sifatida xalqaro moliyaviy bozorlar, maxsus kreditlar eksporti agentliklari,moliyaviy, investitsion, lizing va sug‘urta kompaniyalari, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining uzoq muddatli kreditlari, Xalqaro moliyaviy korporatsiyalar, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, yetakchi xalqaro investitsion banklarning mablag‘lari jalb qilinadi.

Investitsiyalarni jalb qilishda yangi usullardan foydalanish kun sayin ortib bormoqda. Ulardan biri bu yangi zamonaviy moliyaviy instrumentlar hisoblanadi. Zamonaviy moliyaviy instrumentlar orqali investisiyalarni jalb qilish xozirgi kunning eng asosiy jarayonlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining –Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining –Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risidagi Qonuni
3. Kafolatlar va xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish choralari to‘g‘risidagi Qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.

Internet saytlar

http://old.uzbekenergo.uz/uz/news/archive/o-zbekenergo-dakda-bo-lib-o- tgan-matbuot-anjumani-to-g-risida/ - O‘zbekenergo aksiyadorlik jamiyatining rasmiy sayti.

http://www.toshet.uz/uz/content/faoliyat/muqobil_energiya_manbai/Toshkent elektr tarmog‘i korxonasining rasmiy sayti.

http://economics.unian.net/finance/-ekonomika-kitaya-s-nachala- goda-vyirosla-na-.html

http://m.proved-partner.ru/analytics/research/5-kak-izmenilasy- investitsionnaya-ppivlekatelynosty-rossii.html

https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Форфейтинг -

http://www.cfin.ru/investor/finance_meths.shtml

http://russia.mofcom.gov.cn//index.shtml

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORINING RIVOJLANISH AN’ANALARI VA ISTIQBOLLARI

Umarova Gulzodaxon Qodirbekovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti “Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Umuman olganda rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta faoliyati iqtisodiyotning strategik muhim tarmog‘i bo‘lib, uni rivojlantirish va boyitishda investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Sug‘urta bozorini yanada rivojlantirish, raqobatni kuchaytirish, sug‘urta faoliyatining zamonaviy va yangi turlarini yaratish, sug‘urtalaovchilarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug‘urtani nazorat qilish shakllarini takomillashtirish bo‘yicha muhim ishlar olib borilmoqda.

Kalit so‘zlar. Sug‘urta, daromad, harajat, sug‘urta polyusi, sug‘urta kompaniyasi, sug‘urtalanuvchi, risk, havf-hatar, sug‘urta badali, sug‘urta mukofoti, foyda, zarar, qimmatli qog‘ozlar, moliya bozori, sug‘urta bozori.

Milliy sug‘urta bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini taminlash, sug‘urta xizmatlarining talab yuqori bo‘lgan yangi turlarini joriy etish, iste'molchilarning sug‘urta bozoriga bo‘lgan ishonchini oshirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi "O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida" PQ-4412-son qarori bilan mamlakatimizda sug‘urta kompaniyalari ustav fondining minimal miqdoriga qo‘yilgan talablar o‘zgardi.

Ma’lumki, har qanday bozorda sotuvchi va xaridor bo‘ladi hamda ular o‘rtasida tegishli tovarlar ayirboshlanadi. Xuddi shunday, sug‘urta bozorida ham sotuvchi va xaridor ishtirok etadi. Bu yerda potentsial sug‘urtalanuvchi tushunchasini qanday izohlash mumkin, degan o‘rinli savol tug‘ilishi mumkin. Gap shundaki, basharti, potentsial sug‘urtalanuvchini to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtananuvchi, deb atasak katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq, sug‘urta kompaniyalari